

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. 20 may
{year} y. «{day}» month

18/22
{number}-son

Toshkent sh.

Keyingi o'rinnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Yakkasaroy tumani maktabgacha ta'lif bo'limi nomidan nizom asosida ish yurituvchi D.N.Rasulmuaxamedova bir tomondan va keyingi o'rinnlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan «ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES» XK nomidan nizom asosida ish ko'ruchchi direktori Sh.K.Sarimsakov ikkinchi tomondan, mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Yakkasaroy tumanidagi 300-sonli maktabgacha ta'lif tashkiloti binosini joriy ta'mirlash ishlarni bajarish bo'yicha majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yigimlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda 465 307 593 (To'rt yuz oltmis besh million uch yuz yeti ming besh yuz to'qson uch) so'm 15% QQS bilan.

2.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaсидagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

III. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning I bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
- mazkur shartnoma bo'yicha obyektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun muddatda ta'mirlash maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan zarur tarzda bajarilishi hamda obyektni topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun maydonini Pudratchiga berish, tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- shartnomaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

V. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

- 5.1. Shartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.
- 5.2. Pudratchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.
- 5.3. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqtini ishlarni boshlangan kundan e'tiboran 25 ish kunini tashkil etadi.

VI. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

- 6.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma imzolangan kundan boshlab 15 kun ichida 30 foiz avans o'tkazadi.
- 6.2. Ta'mirlanayotgan obyektning qolgan 70 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtaсидаги узилескил hisob-kitob ta'mirlash ishlari tugallangandan keyin va obyekt buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

VII. ISHLARNI BAJARISH

- 7.2. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning V bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasiga va jadvaliga binoan obyektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
- 7.3. Pudratchi obyektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga riosa etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.
- 7.4. Ta'mirlash maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.
- 7.5. Ta'mirlash maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.
- 7.6. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda ho'llaniladigan qurilish materiallari, asbob- uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.
- 7.7. Agar Buyurtmachi Pudratchi tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir. Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.
- 7.8. Pudratchi ta'mirlash maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida. maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.
- 7.9. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, materiallar o'z vaqtida etkazib berilmasligi bilan bogliq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha malumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi. Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

VIII. ISHLAR QO'RIQLASH

8.1. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan obyekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

8.2. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk obyekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

IX. TOMONLARNING MULKIY JAVOB ARLIGI

9.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huhuqiy bazasi to'qrисida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

9.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning) umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

- Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.3. Pudratchi obyektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqtsorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

- Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0.5 foizi mikdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

- Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishshshg kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

9.5. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

X. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlар yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rlishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir,

XI. TA'MIRLANISHI TUGALLANGAN OBYEKTNI QABUL QILIB OLISH

11.1. Ta'mirlash tugallangan obyektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek ta'mirlash tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilib olishniig belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

11.2. Obyektlar ularning foydalanishga tayyorlligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 3 kun mobaynida qabul qilib olinadi,

11.3. Qabul qilib olingan paytdan boshlab obyekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. KAFOLATLAR

12.1. Pudratchi:

- barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi tomlar, kons'gruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;
- ishlarni qabul qilish va obyektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- obyektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

11.2. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomanı imzolagan kundan boshlab kechikmagan holda kamida 1 yil etib belgilanadi.

11.3. Agar obyektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan o'z hisobidan bartaraf etiladi.

11.4. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

13.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi buyurtmachiga bogliq bo'lмаган sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yirlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huuqiga ega.

13.2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bogliq bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.3. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

13.4. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.5. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

14.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek, yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XV. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BO'YICHA BANDLAR

15.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish qoidalariga, shu jumladan amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlaydi; ularning xodimlari, filiallari, benefitsiarlari va ularning sheriklari, shartnomani bajarish bo'yicha kontragentlar pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik, pora olishda vositachilik qilish, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berishdan voz kechishlarini ta'minlash; yoki moddiy yoki nomoddiy foyda olish. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rishni kafolatlaydi.

15.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurash qoidalari buzilgan yoki asosli shubhalar yuzaga kelgan taqdirda bir-birlarini darhol yozma ravishda (anticorruption@uks.uz elektron pochta orqali) yoki telefon orqali (+9978-140-74-48) xabardor qilish majburiyatini oladilar. Tomonlar vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida yozma tushuntirish so'rashga haqli, murojaatni qabul qilgan Tomon esa 10 (o'n) ish kuni ichida o'z fikri bo'yicha bayonet berishi yoki izoh berishi mumkin.

15.3. Ushbu moddaning talablari, shu jumladan, korrupsiya xavfini belgilangan muddatda bartaraf etish, tomonlar tomonidan korruptsiyaga oid vaziyatning pasayishiga olib kelmagan choralar ko'rilmagan taqdirda, boshqa tomon o'z faoliyatini tugatish, shartnomani tuzish yoki uning bajarilishini to'xtatib turishga haqli.

15.4. Ushbu moddada nazarda tutilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tarafga yetkazilgan zararni qoplash ushbu shartnomaning 9-qismida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi, shu bilan birga ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish natijasida etkazilgan zararlar uchun kompensatsiyani talab qilishga haqli emas.

XVI. ALOHIDA SHARTLAR

16.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

- 16.2. Pudratchi kurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huuqiga ega bo'lmaydi.
- 16.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.
- 16.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.
- 16.5. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi va 2022 yilning 31 dekabriga qadar amal qiladi.

XVII. TOMONLAR BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

PUDRATCHI

«ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES» XK

Manzil: Toshkent sh., Yakkasaroy tumani
Muqimiy 1-tor ko'chasi 10-12
Hisobraqam: 2020 8000 2007 0268 5001
STIR 304502795 MFO 01017
Bank: "Ipotekabank" Yakkasaroy filiali
OKED: 64190
Tel: +99894-610-63-00

Biroktor: Sh.K.Sarimsakov





BUYURTMACHI:

Yakkasaroy tumani MTB

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
O'rikzor 2-tor ko'chasi 45-uy
Hisobraqam: 100022860262877091100251025
Bank: Markaziy bank Toshkent sh. XKKM
MFO 00014 STIR: 305147224
Tel: 94-983-99-11
Rahbar: D.N.Rasulmuhamedova

Imzo _____



Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 83720 на приобретение Тошкент шаҳри Яккасарой тумани А.Каххор кўчасидаги 300-сонли ДМТТ биносини жорий таъмирлаш 2 боскич

Способ проведения электронный

Дата 17.05.2022

Время рассмотрения 17.05.2022 11:39

Конкурсная комиссия Яккасарой туман Мактабгача таълим бўлими МАРКАЗЛАШГАН, (далее - Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	RASULMUXAMEDOVA DILFUZA NABIYEVNA	Заведующая	Яккасарой МТБ
Секретарь комиссии	ALIMOVA MUNOJAT AKMALOVNA	Методист	Яккасарой МТБ
Член комиссии	ISAKBEKOVA MUKAMBAR ILXAMDJANOVNA	Методист	Яккасарой МТБ
Член комиссии	DUSMURODOV RUFAT FARXODOVICH	Давлат харидлари бўйича ҳисобчи	Яккасарой МТБ
Член комиссии	ABDUXALIMOVA LOLAXAN ASATULLAYEVNA	Директор ДОО №58	ДОО №58
Член комиссии	ABDULLAYEVA MAMURA NAZIROVNA	Директор ДОО №150	ДОО №150
Член комиссии	MAXMUDXODJAYEV BAXODIRXODJA ULUGXODJAYEVICH	Хизмат бошлиғи	Яккасарой МТБ
Член комиссии	DJATDOYEVA YELENA VIKTOROVNA	Заведующая ДОО №300	ДОО №300

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 17.05.2022 года № лота 83720.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту зданий
Подробное описание	Тошкент шаҳри Яккасарой тумани А.Каххор кўчасидаги 300-сонли ДМТТ биносини жорий таъмирлаш 2 боскич
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	476 640 000.00
Стартовая сумма	476 640 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Объектни жойига чиқиб кўрилганлиги ва ўзи таклиф этган суммага розилиги ҳамда ишларни ўз вақтида топшириш тўғрисида розилиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Объектни жойига чиқиб күрилганлиги ва ўзи таклиф этган суммага розилиги ҳамда ишларни ўз вақтида топшириш тўғрисида розилиги. Кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	5	Кафолат хати	5	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	5	Объектни жойига чиқиб күрилганлиги ва ўзи таклиф этган суммага розилиги ҳамда ишларни ўз вақтида топшириш	5	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	5	кафолат хати	5	Экспертная		

Критерий №2 Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома мавжудлиги. Маълумотнома (Олинганига 10 кундан ошмаган бўлиши керак)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	5	Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома	5	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	5	Солиқ	5	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	5	справка с ГНИ	5	Экспертная		

Критерий №3 Курилиш пудрат ташкилотлари электрон рейтингидаги ўрни

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш пудрат ташкилотлари электрон рейтингидаги ўрни. Маълумотнома (mc.uz сайтидан олинган маълумот асосида)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	5	Курилиш пудрат ташкилотлари электрон рейтингидаги ўрни CCC	4	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MONUMENT STROY MCHJ	5	Электрон рейтинг	5	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	5	Маълумотнома	4	Экспертная		

Критерий №4 Жорий таъмирлаш ишларини олиб бориш муддати (Асословчи ҳужжатлари билан)

Тип: Текстовое значение

Описание: Жорий таъмирлаш ишларини олиб бориш муддати (Асословчи ҳужжатлари билан). Ишларни умумий бажариш графиги ва таклиф қилинган муддатда сифатли ҳамда смета талабларига мос равища бажариб бериш учун кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	14	Elektron Dizayner МЧЖ Жорий таъмирлаш ишларини олиб бориш муддати (Асословчи ҳужжатлари билан). Ишларни умумий бажариш графиги ва таклиф қилинган муддатда сифатли ҳамда смета талабларига мос равища бажариб бериш учун кафолат беради. Ҳужжатлар 8 талабга бириктирилди.	12	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	14	50 КУН.	11	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	14	График	14	Экспертная		

Критерий №5 Банкдан картотека мавжуд эмаслиги ҳақида асл нусхада маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Банкдан картотека мавжуд эмаслиги ҳақида асл нусхада маълумотнома. Маълумотнома (Олинганига 10 кундан ошмаган бўлиши керак)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	5	Банкдан картотека мавжуд эмас	5	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	5	Банкдан картотека мавжуд эмаслиги ҳақида асл нусхада маълумотнома	5	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	5	пистмо с банка	5	Экспертная		

Критерий №6 Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги тўғрисида кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги тўғрисида кафолат хати. Кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	2	Кафолат хати	2	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	2	Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги тўғрисида кафолат хати	2	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	2	письмо	2	Экспертная		

Критерий №7 Ташкилотда фаолият юритувчи ходимлар сони 12 ва ундан юқорилиги (Ф.И.Ш., лавозими ҳамда иш тажрибаси (йил) ҳақида тўлиқ маълумот)

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотда фаолият юритувчи ходимлар сони 12 ва ундан юқорилиги (Ф.И.Ш., лавозими ҳамда иш тажрибаси (йил) ҳақида тўлиқ маълумот). Маълумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	10	Ходимлар ҳақида маълумот	10	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	10	Ходимлар сони	10	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	10	список сотрудников	10	Экспертная		

Критерий №8 Банқдаги шахсий ҳисобрақамида шартнома суммасининг 25%гача миқдорида пул маблағларининг мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Банқдаги шахсий ҳисобрақамида шартнома суммасининг 25%гача миқдорида пул маблағларининг мавжудлиги. Маълумотнома (Олинганига 10 кундан ошмаган бўлиши керак)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	10	Банқдаги шахсий ҳисобрақамида шартнома суммасининг 25%гача миқдорида пул	10	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		маблағларининг мавжуд				
MONUMENT STROY MCHJ	10	Банкдаги шахсий ҳисобрақамида шартнома суммасининг 25%гача миқдорида пул маблағларининг мавжудлиги	10	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	10	письмо банк	10	Экспертная		

Критерий №9 Танлов объектига (мактабгача таълим ташкилоти ёки мактаб каби) ўхшаш давлат буюртмачилигидаги объектларда охирги уч йиллик иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов объектига (мактабгача таълим ташкилоти ёки мактаб каби) ўхшаш давлат буюртмачилигидаги объектларда охирги уч йиллик иш тажрибаси. Асословчи ҳужжатлар

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	15	ўхшаш давлат буюртмачилигидаги объектларда охирги уч йиллик иш тажрибаси	11	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	15	Охирги уч йиллик иш тажрибаси	10	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	15	список работ	15	Экспертная		

Критерий №10 Танлов иштирокчилари томонидан коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича кафолат хатининг мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов иштирокчилари томонидан коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича кафолат хатининг мавжудлиги. Кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	2	Кафолат хати	2	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	2	Коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича кафолат хати	2	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	2	письмо	2	Экспертная		

Критерий №11 Жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун зарур асбоб-анжомлар ва техника воситаларига эгалиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун зарур асбоб-анжомлар ва техника воситаларига эгалиги.
Асословчи хужжатлар

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	5	Жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун зарур асбоб-анжомлар ва техника воситаларига эга	5	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	5	Асбоб-анжомлар ва техника воситалари	5	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	5	список техники	5	Экспертная		

Критерий №12 Ташкилотнинг давлат идоралари рўйхатидан ўтказилганлиги ҳақидаги гувоҳнома мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотнинг давлат идоралари рўйхатидан ўтказилганлиги ҳақидаги гувоҳнома мавжудлиги.
Гувоҳнома нусхаси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	2	Гувоҳнома	2	Экспертная		
MONUMENT STROY MCHJ	2	Гувоҳнома	2	Экспертная		
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	2	гувоҳнома	2	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MONUMENT STROY MCHJ	476 640 000.00	439 670 534.00	16.05.2022 16:08:49	19.51
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	476 640 000.00	428 976 000.00	16.05.2022 13:27:34	20.00
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	476 640 000.00	465 307 593.00	16.05.2022 17:52:14	18.44

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
MONUMENT STROY	72	19.51	91.51

MCHJ			
ELEKTRON DIZAYNER MCHJ	73	20	93
ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK	79	18.44	97.44

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 83720 от 17.05.2022 года на приобретение Тошкент шаҳри Яккасарой тумани А.Каххор кўчасидаги 300-сонли ДМТТ биносини жорий таъмирлаш 2 боскич определила победителем:


ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES XK
304502795

и резервный исполнитель: ELEKTRON DIZAYNER MCHJ (306422886)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	MAXMUDXODJAYEV BAXODIRXODJA ULUGXODJAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	ISAKBEKOVA MUKAMBAR ILXAMDJANOVNA	Согласен	
Член комиссии	DUSMEROV RUFAT FARXODOVICH	Согласен	
Член комиссии	ABDUXALIMOVA LOLAXAN ASATULLAYEVNA	Согласен	
Член комиссии	ABDULLAYEVA MAMURA NAZIROVNA	Согласен	
Член комиссии	DJATDOYeva YELENA VIKTOROVNA	Согласен	
Председатель комиссии	RASULMUXAMEDOVA DILFUZA NABIYEVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Тошкент шаҳри Яққасарой тумани А.Каххор кўчасидаги 300-сонли ДМТТ биносини жорий таъмирлаш 2 боскич учун 22110012083720-сонли лот бўйича харид қилиш комиссиясининг баённомасига

4-сонли БАЁННОМА

Тошкент ш.

«20» « 5 » 2022 й.

“Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги ЎРҚ-684-сонли қонунига мувофиқ Яққасарой тумани мактабгача таълим бўлими томонидан Ўзбекистон Республикаси Товар хомашё биржасининг “etender.uzex.uz” маҳсус электрон ахборот порталида «Тошкент шаҳри Яққасарой тумани А.Каххор кўчасидаги 300-сонли ДМТТ биносини жорий таъмирлаш 2 боскич» учун 22110012083720-сонли лот бўйича харид қилиш комиссиясининг баённомаси расмийлаштирилди.

Мазкур баённомага мувофиқ куйидаги маълумотлар қабул қилинди:

Бошланғич нарх: 476 640 000 сўм.

№	Тижорат таклифини тақдим этган корхона ва ташкилот номи	Тижорат таклифи (Нарх қиймати, сўм)	Жами тўпланган балл
1.	"ELEKTRON DIZAYNER" МЧЖ	428 976 000	93
2.	"MONUMENT STROY" МЧЖ	439 670 534	91,51
3.	"ABDUL AZIZ FAYZ BIZNES" МЧЖ	465 307 593	97,44

Юқоридаги маълумотлардан келиб чиқиб, Тошкент шаҳри Яққасарой тумани А.Каххор кўчасидаги 300-сонли ДМТТ биносини жорий таъмирлаш 2 боскич (лот рақами 22110012083720) бўйича 2022 йил 17 майда расмийлаштирилган харид комиссияси баённомаси расмийлаштирилган вақтдан сўнг икки иш куни ичида “Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги ЎРҚ-684-сонли қонунининг 61-моддасига асосан мазкур танлов натижаси бўйича корхона ва ташкилотлар томонидан ҳеч қандай эътиrozлар бўлмади ҳамда икки кунлик мухокамадан сўнг “Abdul Aziz Fayz biznes” XКни ғолиб деб топди.

Ушбу танловда эълон қилинган иш ва хизматларни бажариш учун захира ижрои сифатида "ELEKTRON DIZAYNER" МЧЖ белгиланди.

Комиссия котиби
Комиссия аъзоси
Комиссия аъзоси
Комиссия аъзоси
Комиссия аъзоси
Комиссия аъзоси
Комиссия аъзоси

М.А.Алимова
М.И.Исақбекова
Л.А.Абдухалимова
М.Н.Абдуллаева
Б.У.Махмудходжаев
Е.В.Джатдоева
Р.Ф.Дусмуродов

**ЮРИДИК АҲАМИЯТГА ЭГА ҲУЖЖАТЛАРНИНГ ҚОНУН
ҲУЖЖАТЛАРИГА МУВОФИҚЛИГИ ТҮҒРИСИДА
ХУҚУҚИЙ ХУЛОСА**

20.05.2022 йил

Тошкент ш.

1. Лойиҳанинг тури – Шартнома
2. Лойиҳанинг номи – Яккасарой туманидаги 300-сонли мактабгача таълим ташкилоти биносини жорий таъмирлаш бўйича Пудрат шартномаси.
3. Лойиҳа ишлаб чиқувчиси ва киритилган сана ҳакидаги маълумот – Яккасарой туман Мактабгача таълим бўлими. 20.05.2022 й.

Яккасарой туман Мактабгача таълим бўлими ҳамда “Abdul Aziz Fayz Biznes” ХК томонидан Яккасарой туманидаги 300-сонли мактабгача таълим ташкилоти биносини жорий таъмирлаш бўйича қиймати 465.307.593 (Тўрт юз олтмиш беш миллион уч юз етти минг беш юз тўқсон уч) сўм бўлган Пудрат шартномаси лойиҳаси ишлаб чиқилган.

Мазкур хужжат Яккасарой туман юридик хизмат қўрсатиш марказига хуқуқий экспертизадан ўтказиш ва холоса бериш учун 20.05.2022 йилда келиб тушди.

Лойиҳа амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ ишлаб чиқилган ва уни қабул қилиш мақсадга мувофиқ.

Марказ бош юрисконсульты



Ф.Омонтошев